

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО
ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ

МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЮКСАЛИШИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ

**МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ
ҚАДРИЯТЛАРНИНГ
ЮКСАЛИШИДА
АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ**



ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО
ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ



**МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ
ҚАДРИЯТЛАРНИНГ
ЮКСАЛИШИДА
АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ**



«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт матбаа бирлашмаси
Тошкент – 2022

УЎК: 17.022.1-055.2

КБК: 87.60

М 50

«Миллий ва маънавий кадриятларнинг юксалишида аёлларнинг ўрни» номли конференция материаллари тўплами / тузувчи Р. Матибаева. – Тошкент: «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2022. – 152 б.

УЎК: 17.022.1-055.2

КБК: 87.60

Таҳрир ҳайъати:

- З.Исломов** – Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, масъул муҳаррир
- Р.Матибаева** – Араб тили ва адабиёти ал-Азхар кафедраси доценти, т.ф.д.
- З.Шокирова** – Араб тили ва адабиёти ал-Азхар кафедраси доценти, т.ф.н.
- Г.Фузаилова** – «Ислом тарихи ва манбашунослиги» кафедраси доценти, ҳайъат аъзоси

ISBN 978-9943-6525-1-4

© «Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2022

Тарихдан маълумки, дунёга довруғ солган аксари буюк алломаларга, фозилу уламоларга болалик пайтида оталари ҳаром касб билан топилган бирор лўқма ҳам таом едирмаган, оналари уларни бетаҳорат эмизишмаган. Она сутида болани соғлом ва бақувват ривожланиши учун керакли барча озукалар мукамал даражада мавжуд. Она сути суюқ, энгил ҳазм бўлувчи ва етарли калорияга эга бўлган, турли микроблардан холи тайёр озукадир. Бу сут таркибида 100 дан зиёд керакли озиқ моддалар бўлиб, фақат миқдор жиҳатидан бола эҳтиёжини қопламай, сифат жиҳатидан ҳам боланинг ёши ва соғлиғига мос келади. Оксил, ёғ, углеводлар она сутида тузилишига кўра энгил ҳазм бўладиган бўлса, таркибига нисбатан гўдак тўқимасига яқин бўлади ва унинг эҳтиёжини тўлиқ қоплайди.

Хулоса қилиб айтганда, ҳанафий маазҳабига тааллуқли фикхий асарлардаги шаръий ҳукм ва фатволар узоқ асрлар синовидан ўтган бўлиб, у ота-она ва болаларга ўз ҳақ-ҳуқуқлари ҳамда вазифаларини танитишда ажойиб дурдона асарлар сифатида қадрлидир. Айниқса, Имом Маждуддин Уструшаний ҳазратлари “Жомий аҳком ас-чиғор” (Бола ҳуқуқлар кодекси) асарида жилд-жилд фикхий китобларда сочилган болалар ҳуқуқларига тааллуқли аниқ тартиб-қоидаларни топиб, ўз давригача бўлган таниқли уламоларнинг дурдона фикрларини тўплаб, умумлаштириб, хулосалаш билан тайёр шаръий ҳукм, фатво даражасига етказиб, оғиримизни энгил қилишни мақсад этган.

* * *

Sharipova Gulshan Asad qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Axborot-resurs markazi xorijiy
adabiyotlar bo'limi mudiri

SOG‘LOM AVLOD TARBIYASIDA AYOLLARNING O‘RNI

Salomatlik insonning eng asosiy, topilmas boyligidir. Shu sababdan aholi salomatligini mustahkamlash, sog‘lom yosh avlodni tarbiyalash mamlakatimizning ustuvor vazifalari qatoridan joy olib kelmoqda. O‘z vaqtida yetarlicha e‘tibor qilinmagan, kerakli davo choralari qo‘llanilmagan kichik alomatlar jiddiy kasalliklar belgisi bo‘lishi hamda o‘zidan salbiy

asoratlar qoldishi hech gap emas. Shu sababli, jamiyatimizdagi har bir shaxs ongiga kasallikni davolashdan avval, uning oldini olishni, kasallikka sabab bo'luvchi omillarni bartaraf qilishni singdirishimiz zarur.

Aholi orasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish jarayonida har bir jamiyat a'zosi singari ayollarning o'rni ham juda katta. Chunki jamiyat negizi bo'lgan oilada har tomonlama sog'lom muhit yaratish eng katta mas'uliyatni ayollar zimmasiga yuklaydi. Farzandlarni go'daklik davridan parvarishlash, sog'lom ovqatlantirish, shaxsiy gigienasini nazorat qilish, jismoniy va ruhiy salomatligiga e'tiborli bo'lish ayollar, ya'ni onalarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu bilan ayol o'z yelkasiga juda katta mas'uliyatni oladi aslida. Ruhan sog'lom, jismonan baquvvat yosh avlod mustaqil fikrlay oladigan, jamiyat va davlat rivojiga munosib hissa qo'sha oladigan shaxs bo'lib yetishishi jonkuyar va fidokor ayollarning say-harakatlari mevasi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Inson salomatligi deganda uning ham ruhan, ham jismonan sog'lom ekani nazarda tutiladi. Ya'ni bu ikki omil bir-biri bilan uzviy bog'liq. Insonning jismoniy salomatligida muammolar paydo bo'lsa, uning o'zi va atrofdagilar buni tez ilg'ashi, davo choralarini ko'rish mumkin. Ammo, ruhiy holatidagi o'zgarishlar sekin-astalik bilan namoyon bo'lishi va hatto, jiddiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Ko'pgina ruhiy xastaliklarning negizida oiladagi nosog'lom muhit, keskin munosabatlar, ruhiy tazyiq va zo'ravonliklar yotadi. Farzandlarning erkin fikrlay olishi, ruhan sog'lom bo'lishi yoki ruhiy bosim ostida ulg'ayishi u yashayotgan oilada ayollarga bo'lgan munosabatning ijobiy yo salbiy ekanligiga bog'liq. Ayniqsa oilada onalarga bo'lgan munosabat bolalar ruhiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Chunki sog'lom va baxtli, o'z haq-huquqlariga ega, erkin fikrlay oladigan onalarning farzandlari har tomonlama sog'lom bo'lib ulg'ayadi. Bir so'z bilan aytganda, ona bolalar uchun bir dunyo kabidir. Uni tahqirlash bolaning butun boshli hayotini oyoqosti qilishdir.

Mamlakatimizda aholi ruhiy salomatligi borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi "2019— 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4190-son qarorini misol qilish mumkin. Qarorga asosan aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni aniqlash va ularning manfaatlarini himoya qilish, yordamga muhtoj bo'lgan aholining barcha yoshdagi guruhlarini psixiatriya yordami

bilan qamrab olish, davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yanada takomillashtirilmoqda. Bu jarayonda jamiyatimizning har jabhada ilg'or, bilimli ayollari ham o'zlarining munosib hissasini qo'shib kelishmoqda.

Qaysi jamiyatda xotin-qizlar ta'lim tarbiyasiga e'tibor qaratilsa, haq-huquqlari, erkinliklari ta'minlansa, o'sha yerda farzandlar har tomonlama sog'lom va mustaqil bo'lib ulg'ayadi. Bilimsiz ayol farzand parvarishida ham, tarbiyasida ham to'siqlar oldida qoqilaveradi. Zero, bir ayolni bilimli ekanligi butun bir oilani bilimli bo'lishi demakdir. Hozirgi bir-biridan farqli, o'rganilmagan, kundan-kunga ko'payib borayotgan kasalliklar davrida ayollarning har tomonlama bilimli bo'lishi, hamda o'zi va oila a'zolarining salomatligiga e'tiborli bo'lishi o'ta muhim hisoblanadi.

Bola yoshligidan atrofidagi insonlarga, ayniqsa ota-onasiga taqlid qiladi. Asosan ona bolalar bilan ko'p vaqt birga bo'lganligi sababli uning har bir odati farzandida namoyon bo'ladi. Shu sababli sog'lom turmush tarzini shakllantirib borishda ayollarning o'рни juda katta.

Yosh avlodning salomatligi uchun eng muhim omillar sifatida quyidagilarni keltirish zarur:

- Oiladagi psixologik muhit;
- Gigiyena qoidalariga rioya qilish;
- Sog'lom ovqatlanish qoidalariga amal qilish;
- Tabiat bilan uyg'unlik;
- Sport bilan doimiy shug'ullanish;
- Tibbiy nazorat.

Har qanday yoshdagi insonda oiladagi salbiy psixologik muhit ta'sirida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Oila a'zolarining munosabatlaridagi ziddiyat o'sib borayotgan yosh farzandga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bolalar ayniqsa onalariga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatni juda jiddiy qabul qilishadi va natijada ularning ruhiyatida doimiy tushkunlik, qo'rquv, xavotir, asabiylik, hamda alamzadalik paydo bo'ladi. Bolalardagi shu kabi ruhiy zo'riqishlar oqibatida turli jiddiy kasalliklar yuzaga kelishi hech gap emas.

Salomatlikni mustahkamlash borasida so'z borar ekan, yana bir eng muhim omil gigiyena qoidalariga rioya qilishdir. Bolalarda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish ko'nikmasi shakllantirilsagina, ular tashqi muhit ta'sirida hosil bo'ladigan kasalliklardan uzoq bo'ladilar.

Sog'lom turmush tarzini tadbiq etishda tabiiy va sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish juda muhim. Oziq-ovqat mahsulotlarining

tarkibi va ularning xususiyatlari salomatlik, jismoniy rivojlanganlik, mehnat qobiliyati, hissiy holat va umuman, umr ko'rish davomiyligi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Bir qator olimlarning fikriga ko'ra, jismoniy salomatlik 50% odamning hayot tarziga bog'liq bo'lib, u ovqatlanish tartibini ham o'z ichiga oladi. Irsiyat va atrof-muhit holati hissasiga 20%, tibbiy ta'minot darajasi hissasiga esa atigi 10% to'g'ri keladi. To'g'ri ovqatlanish haqida bir qancha fikrlar mavjud va ularning ba'zilar ma'lum oziq-ovqat mahsulotlarini umuman cheklashni buyuradi, ba'zilar esa faqatgina bir turdagi mahsulotlarni iste'mol qilish kerakligini ta'kidlaydi. Ammo har bir inson organizmi alohida xususiyatlarga ega va turli ozuqa moddalariga ehtiyojmand hisoblanadi. Shu sababdan har bir organizm uchun o'ziga xos ovqatlanish tartibini qo'llash maqsadga muvofiq.

Bolalar salomatligi haqida mulohaza yuritar ekanmiz, bola hayoti qanchalik tabiat bilan uyg'un ekanligini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Bolalarni chaqaloqlik davridan tabiat qo'yniga olib chiqish, quyosh nurida sayr qildirish tavsiya qilinadi. Chunki har bir organizm singari bola organizmi uchun ham quyosh nuri va kislorodga boy tabiat qo'ynida bo'lish juda foydali.

Sport sog'lik garovi naqliga amal qilgan holda bolalarni 4-5 yoshidan sport bilan shug'ullanishga jalb qilish nafaqat farzand salomatligi uchun balki, o'ziga bo'lgan ishonch, talabchanlik va mustahkam iroda shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bolalar immuniteti mustahkamligini va kasalliklar bilan kurashuvchanlikni oshirishda ham sport bilan shug'ullanish juda zarur.

O'z vaqtida tibbiy ko'riklardan o'tish har qanday kasallikning oldini olishga hamda ilk bosqichda davo choralarini ko'rishga imkon beradi. Ayniqsa bolalar uchun turli yuqumli kasalliklarga qarshi ko'pgina emlash amaliyotlari o'tkaziladi. Doimiy tibbiy nazoratda bo'lish bola uchun ham ota-onalar uchun ham juda foydali. Chunki boladagi rivojlanish darajasi, aqliy yoki jismoniy o'zgarishlar tibbiyot xodimlari kuzatuvida bo'ladi.

Sog'lom yosh avlodni tarbiyalashda asosiy mas'uliyat ayollarga yuklatilar ekan, shuni yodda tutish kerakki, ayollar o'zi sog'lom va baxtli bo'lgandagina sog'lom farzandni dunyoga keltirishi, tarbiyalashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz
2. unicef.org/Uzbekistan
3. mymedic. uz

Талипова Зилола Набиевна,
Тошкент давлат юридик университети
2-тоифали кутубхоначиси

ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ ВА УЛАРНИНГ ҲАҚ-ҲУҚУҚЛАРИ

Ҳар қандай жамият тараққиёти кўп жихатдан аёлларнинг жамиятдаги мавқеини юксалишига боғлиқ. Бугунги кунда хотин-қизларимизга катта эътибор қаратилмоқда. Шунини таъкидлаш жоизки, аёлларнинг билими ва салоҳиятини ошириш, имкониятларини рўёбга чиқариш, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётдаги тутган ўрнини мустаҳкамлаш, ҳақ-ҳуқуқлари ва уларни ҳимоя қилишни таъминлаш бугунги кун учун долзарб масала ҳисобланади.

Тарихдан маълумки айрим араб қабилалари қиз туғилган чақалоқларни тириклайин кўмиб келганлар. Мана шу иллатнинг ўзи ҳам жоҳилият даврида аёлларнинг шаъни оёқ ости бўлганлиги ва уларга бўлган зулмкор муносабатнинг яққол тасдиғидир. Жоҳилият даврида аёллар бўлган тазйиқ ва зўравонлик содир бўлиб келинган, бу эса аёлларнинг ўрни, қадир-қимматини топталганлиги оқибатидандир. Аёлларнинг камситишларига олиб келадиган сабаблардан бири узоқ ўтмишдан сакланиб қолган анъана ва одатлардир. Бирок яқин йилларгача давом этиб келаётган тазйиқлар, оиладаги зўравонликлар, хўрланишлар уларнинг ҳақ-ҳуқуқларини билмасликларидан далолат беради. Зўравонлик аёлларнинг умумий фаровонлигига салбий таъсир қилади ва уларни жамиятда тўлиқ иштирок этишига тўсқинлик қилади. Аёллар ҳуқуқи, уларнинг жамият ҳаётидаги ўрни кўп асрлардан буён кизгин баҳсларга сабаб бўлиб келяпти. ХХI асрда яшаётганимизга қарамай, ханузгача аёл ҳуқуқлари учун курашиш бутун жаҳонда ўз долзарблигини йўқотгани йўқ. Аёллар эркаклар билан назарий жихатдан тенг ҳуқуқли деб эълон қилинган бўлсада, амалда, ҳар соҳада, ҳар қуни уларга нисбатан камситишнинг юзлаб турлари учратамиз. Ҳуқуқлар тенгсизлиги туфайли дунёнинг турли бурчакларида миллионлаб аёллар азият чекмоқдалар. Шу жумладан, бизнинг жамиятимизда ҳам ҳалича давом этиб келаётган оиладаги зўравонликлар, юқори поғонага чиқаётганини ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Эркак аёлга дўк урса, шикаст етказса, дўппосласа, қайнона, қайнота ва бошқа қариндошлари

оиладаги келинга зулм қилинса, ҳақоратласа, камситса, уларга сўзсиз бўйсунганини хоҳлашса, ҳеч қандай имтиёзлар талаб қилмаслигини ишташса, ёки ота – онанинг фарзандига яъни ўғлига келинни ёмон отлиқ қилиб кўрсатиб босим ўтказса, унга нисбатан адолатсизлик қилинса, кийноққа солинса ва гап оиладан ташқарига чиқарилмаса, албатта бу ҳолатга чора кўрилмаса, айбдорлар жазоланмаса, зўравонлик қурбони бўлган аёл ҳар томонлама кийин ҳолатда қолади. Аёлларимиз ориятли, улар оиласини шаънини ҳамма нарсадан устун қўйиши ва ҳуқуқий саводхонлик даражаси пастлиги сабабли ташқаридан ёрдам сўрамайдилар. Охир – оқибат бу доимий кўркув, депрессия, жисмоний, руҳий, ёки соғлиғига жиддий зарар етказилиб, натижада ўз жонига қасд қилиш каби ўта аянчли ҳолат билан тугаши ҳам эҳтимолдан ҳоли эмас. Шундан келиб чиқиб, мамлакатимизда хотин-қизларнинг мавқеларини мустаҳкамлаш, ҳамда интилиш ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, оила ва умуман жамиятдаги уларнинг манфаатини ҳимоя қилиш мақсадида бир қатор қонун ҳужжатлари ҳамда ҳуқуқат қарорлари қабул қилинди.

Булардан “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни ишлаб чиқилди. Мақсад хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликнинг барча шаклларида ҳимоя қилиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишидан иборатдир. Мазкур Қонунга асосан ва хотин-қизларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатлари тазйиқ ва зўравонликдан ишончли ҳимоя қилинишини таъминлаш борасидаги ишлар самарадорлигини ошириш мақсадида вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 4 январидagi 3-сон қарори билан Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган хотин-қизларга ҳимоя ордерини бериш, ижросини таъминлаш ва мониторинг олиб бориш тўғрисида низом тасдиқланди.

Шунингдек, “Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқлар ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг мақсади хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятларни таъминлаш, соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Қонун кўра, гендер сиёсати амалга оширилишини белгилаб берди. Гендер – бу хотин-қизлар ва эркаклар ўртасидаги муносабатларнинг жамият ҳаёти ва фаолиятининг барча соҳаларида, шу жумладан сиёсат, иқтисодиёт, ҳуқуқ, мафкура ва маданият, таълим ҳамда илм-фан соҳаларида намоён бўладиган

ижтимоий жихатдир. Барчага маълумки, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2015 йилнинг сентябрида Барқарор ривожланиш бўйича ўтказилган саммитида қабул қилинган 70-сон резолюциясига мувофиқ, шунингдек, 2030 йилгача бўлган даврда БМТ Глобал кун тартибининг Барқарор ривожланиш мақсадларини изчил амалга ошириш бўйича тизимли ишларни ташкил этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарор қабул қилди. Қарорга кўра, Ўзбекистон Барқарор ривожланишнинг Бешинчи мақсадини амалга ошириш доирасида “Гендер тенгликни таъминлаш ҳамда барча хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва имкониятларини кенгайтириш”га оид тўққизта вазифани ишлаб чиқди.

Бешинчи мақсаднинг вазифаларига (Гендер тенглик) мувофиқ, 2030 йилга келиб барча хотин-қизларга нисбатан камситишларнинг ҳар қандай шаклига барҳам бериш, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётда қарорлар қабул қилишнинг барча даражаларида аёлларнинг тўлиқ ва самарали иштирокини ва етакчилик қилиш учун тенг имкониятларни таъминлаш зарурлиги айтиб ўтилди.

Жорий йилнинг 7 мартида “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони эълон қилинди. Фармонда мамлакатда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, уларнинг иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш, соғлиғини сақлаш, касбга ўқитиш ва бандлигини таъминлаш, тадбиркорликка кенг жалб этиш, эҳтиёжманд хотин-қизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, гендер тенгликни таъминлаш борасида олиб борилаётган ислохотларни тизимли давом эттириш иборатдир.

Дунёда ҳаётнинг давом этиши эркакларга қанчалик боғлиқ бўлса, аёлларга ҳам шунчалик боғлиқдир. Шундай экан, бугунги кунда Республикамизда хотин-қизларни қўллаб-қувватлашга доир давлат сиёсатини амалга оширишда ҳуқуқий асос яратилган. Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев томонидан хотин-қизларни жамиятдаги ўрнини янада юксалтириш ва мустаҳкамлаш, нуфузини ошириш, жамиятнинг фаол қатламига айланишлари, Давлат хизматчилари лавозимларини эгаллаш учун кадрлар захирасини шакллантириш, хизмат кўтарилишда

хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ва имкониятларни таъминлаш, хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимини янги босқичга кўтариш, уларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш, оилавий зўравонликнинг олдини олиш, гендер тенгликни қарор топтиришга қаратилган муҳим чора-тадбирлар юзасидан видеоселектор ва йиғилишларида бу масалаларга алоҳида эътибор қаратилиб, муҳим вазифалар ва устувор йўналишлар белгилаб берилди.

Бугунги кунда, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ҳамда Сенати таркибидаги аёл депутатларнинг сони ошган. Айтиш мумкинки, мамлакатимизда барча соҳаларда каби, сиёсат ва бошқарув соҳасида аёлларимиз эркаклар билан ёнма-ён туриб, мамлакатимизнинг эртанги кунини учун хизмат қилмоқда.

Аёл — миллат келажаги, ҳаёт давомчиси. Аёллар ўзининг ҳақиқий кадр-қимматини топиши керак ва уларга нисбатан ҳеч қандай зўравонлик ва зулм кўрсатилмаслиги лозимдир. Хотин-қизларимизни ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, аёллар ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, оналик ва болаликни муҳофаза этиш, ўз имкониятларини тўлақонли рўёбга чиқариш, улар учун барча шарт-шароитларни таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди, шунингдек, оила институтини мустаҳкамлаш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Хотин-қизлар эъзозланган, кадрланган юртнинг бугуни ва эртаси фаровон бўлади.

Хулоса қиладиган бўлсак, жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириб бориш қонун устуворлигини таъминлаш ва қонунийликни мустаҳқалаш муҳим вазифалардан биридир. Шундай экан, аёллар манфаатлари учун чиқарилаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг қабул қилиниши юртимиздаги хотин-қизларни турмуш тарзини яхшилаш, оила ва жамиятдаги мавқени янада мустаҳкамлаш, аёллар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг оилавий-ҳуқуқий механизмларини кучайтириш, уларни камситилишларига йўл қўймаслик, мамлакатнинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётида фаол иштироки учун ҳуқуқий асос пойдеворидир. Шунингдек аёлларни маънавий-маърифий жараёнларга кенг жалб қилиш муҳим амалий ҳаракатлардандир чунки ҳар қандай халқнинг маънавий даражасини аввало, шу юрт аёлларининг маънавий савияси белгилаши бежиз эмасдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Хотин-қизлар ва болаларнинг ҳуқуқларига оид конун қафолатлари: (Оммабоп юридик маълумотнома). — Т.: “Ўзбекистон”, 2000 й. - 256 б.
2. Аёл ҳуқуқи ва эркинликлари: -- Т.: “Адолат”, 2002 й. – 236 б.
3. “Хотин кизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2019 йил 26 февраль). – ТДҶОУ, 2019, - 490 б.
4. Хелена Фрейзер. Ўзбекистон гендер тенгликни таъминлаш бўйича муҳим қадамларни кўймоқда. - <https://strategy.uz>
5. “Оила ва хотин-қизларни тизимли қўллаб-қувватлашга доир ишларни янада жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. - <https://xs.uz>

* * *

Дилноз Оллаберганова Қодирбергановна

Тошкент шаҳар Учтена тумани

74 умумтаълим мактаби ўқитувчиси

**ХОЛИД ХУСАЙНИЙ АСАРЛАРИДА АЁЛ ХАРАКТЕРИНИНГ
ШАКЛЛАНИШ МЕЗОНЛАРИ**

Холид Ҳусайнийнинг энг машҳур асарларидан бўлмиш “Минг кўёш шуъласи” романидага бош қахрамонлардан бири ҳисобланган Марямнинг дунёкараши, унинг фикрлари ҳар бир китобхонни унинг тақдирига бефарқ бўла олмасликка ундайди. Унинг наздида агар у мактабга борадиган бўлса, ҳамма уни ҳақорат қилади, кўчага чиқадиган бўлса, у билан ҳеч ким бирга ўйнашни хохламайди, у борган жойда фалокат юз беради, ва у ҳар қандай инсонлар томонидан кўрсатилиши мумкин бўлган яхшиликларга, эътиборга ва меҳр-муҳаббатга муносиб инсон эмас. Ҳудди шу ва шунга ўхшаш тушунчалар билан вояга етган Марям учун, унинг келажақдаги турмуш тарзи ҳам шу зайлда давом этиши оддий холдек туюларди Марямга.

Марям ҳар пайшанба кунини интизорлик билан кутар, уйига сизмай кетарди. Чунки пайшанба кунини, уни кўришга отаси Жалил

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кайковус. “Қобуснома”. “Ўқитувчи” нашриёти. 2017 йил.
2. Турсуной Содикова. “Яшаш тилсими”. Ғофур Ғулом нашриёти. 2009 йил.
3. Холид Хусайний. “Минг қуёш шуъласи”. “Янги аср авлоди” нашриёти. 2020 йил.
4. UPL. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/nutqlar/malala-yusufzay-bizning-eng-qudratli-qurolimiz-kitobu-qalamimizdir/?Inglat>
5. UPL. <https://www.un.org/ru/55899>

* * *

Elmurotova Mavluda Farxodovna

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Axborot resurs markazi xodimi

JAMIYAT RIVOJIDA XOTIN-QIZLARNING ROLI

“Ayol bir qoʻlida beshikni, bir qoʻlida dunyoni tebratar”- deganlari bejiz emas albatta. Ayolning matonatini taʼriflashga qalam oʻjiz. Ayol avvalo ona, oilaning tayanchi, ayol farzand, avlodimiz davomchisi, ayol ustoz ilm-ziyo taratuvchisi, ayol har sohaning mohir mutaxassisi. Qadim dunyo insoniyat tarixidan tortib hozirgi zamon taraqqiyotigacha maʼlumki, insoniyat jamiyat, ilm-fan va marifat rivojida xotin-qizlarning roli juda katta. Bu nafaqat bir necha yillik, balki bir necha asrlar osha oʻz isbotini topgan. Buni bir oila misolida qarajak, shu oilaning yuksalishi yoʻlida ayolning qanchadan qancha mashaqqatlari yotadi. Bunda, oila yaralishidan boshlab, farzandning dunyoga kelishi, uni bedor kechalarda parvarishlab, oq yuvib, oq tarab, tarbiyalab, roʻzgʻor ishlarini oʻz oʻrniga qoʻyib, oʻz bilimi ustida izlanib, koʻnikmalarini oshirib boradigan namunali ayollarimiz qanchadan qancha. Ular oʻz bilim va salohiyatlari bilan hayotga teran nazar bilan qaraydilar. Ayol bilimli, salohiyatli, ziyoli hech boʻlmaganda bir hunar egasi boʻlsa, oila mustahkam boʻladi. Lekin bu darajaga erishish uchun albatta ayollarimizga, xotin-qizlarimizga avvalo oila aʼzolari otanonalar, qaynona-qaynotalar, turmush oʻrtloqlari etiborli boʻlib ular uchun sogʻlom muhit yaratib berishlari kerak. Bunday muhit xotin-qizlarimizni erkin taʼlim-tarbiya olishlari, erkin va ruhiy zoʻriqishlarsiz rivojlanishlari

uchun zarur. Ayol oʻz zukkoligi, tirishqoqligi bilan oiladagi muammolarni yechishda, turmush urtogʻiga tirgak boʻla oladi. U farzandlar tarbiyasida ham maʼsulyatli shaxs.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018 yil 2-fevraldagi PF-5325-son xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi farmonlari eʼlon qilindi. Shu kundan eʼtiboran Respublika boʻylab farmon ijrosi doirasida, koʻplab chora-tadbirlar yoʻlga qoʻyila boshlandi. Respublika xotin-qizlar qumitasi boshchiligidagi mahalla idoralari, hokimiyatlar, tashkilotlar, oʻquv maskanlari, jamiyatimizning har jabhasidagi xotin-qizlarning hayoti, turmush tarzi, ularning yutuqlariyu kamchiliklari, ular duch keladigan yoki duch kelayotgan barcha muammolar tubdan oʻraganilib kelmoqda. Bu kamchiliklar va muammolarni bartaraf etishda juda koʻp tashabbuslar yoʻlga qoʻyildi va bugungacha qancha muammolar oʻz yechimini topib, xotin-qizlarimizning hayotida kata oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Bizning Respublikamizda xotin-qizlarning huquq va erkinliklari qonun bilan himoyalangan. Oila kodeksida ham ularning barcha huquqlari insoniylik jihatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan.

Bugungi kundagi tashabbuslar xotin-qizlar diskriminatsiyasiga qarshi boʻlib, oilada tenghuquqlik va gender tenglikni oʻrnatish, ayollar kamsitilinishi va qadrsizlanib xoʻralanishlariyu taʼziqqa uchrashlariga barham berish. Ularni haq-huquqlarini himoya qilib, ular uchun "Ayol" degan maqomni yaratish. Bu nafaqat bizda balki butun dunyodagi muammo boʻlib, bu muammo bilan dunyo kurashmoqda. Lekin millatimiz madaniyati va ajdodlarimizdan qolgan tarbiya va mintalitetimiz tufayli bu muammo bizda chuqur ildiz otmagan deb oʻylayman.

Bugungi kun imkoniyatlari, zamon talablari, xotin-qizlarimizning yuqori darajalarga erishishlari uchun kata yoʻl hisoblanadi. Ayol-bu jamiyatning bir boʻlagi. Xotin-qizlarsiz hayotimizni tasavvur ham eta olmaymiz, ularni har jabhada uchratamiz. Ayniqsa bizning mehnatkash ayollarimiz, zukko xotin-qizlarimiz turli sohalarda oʻzlarini bilim va malakalarini koʻrsatib kelmoqdalar. Bugun ayol avvalo ona. U jamiyatdagi barcha insonlarning onasi. U mukammal insonni parvarishlab, ulgʻaytirib, bilim berib, voyaga yetkazib jamiyatga topshiradi. Buning ortida qancha mehnat, mashaqqat bor. Bunday samaraga erishish uchun uning oʻzi ham har taraflama sogʻlom boʻlishi, u ham bolaligidanoq mehr, etibor va parvarishga ega boʻlishi kerak.

Ruhan mustahkam, sogʻlom va irodali, hayotning sinovlarida yengilmas boʻlishi lozim. Xotin-qizlarimiz har taraflama sogʻlom muhitdan ozuqa olishi kerak. Bir niholnug oʻnib usishi va samarali meva berishi uchun yer, suv, quyosh nuri ,yaxshi oʻgʻit va parvarish kerak. Inson ham xuddi shunday . farzandlarimizni togʻri parvarishlashimiz va kelajak avlodimiz davomchilarini har taraflama asraashimiz lozim. Buning uchun har bir oilada sogʻlom oila muhitini yaratishimiz kerak.

Demak xotin-qizlarimizga qancha etiborli boʻlsak , shuncha jamiyatimiz rivojlanadi. Qizlarimizni bolaliklaridan har taraflama toʻgʻri tarbiyalashimiz, kerakli bilimlarini berishimiz, sogʻlom hayot tarzini yaratib berishimiz, kerak. Chunki ular ham oʻgil farzandlarimiz qatori ertangi kunimiz,naslimiz davomchilari hisoblanadi. Ularni bolaliklaridan ham diniy ,ham ilmiy, ham tibbiy bilimlarini oshirib borishimiz kerak . Chunki ular “Oila” deb atalmish bir kotta akademiyaning tayanchi, suyanchi,ya`ni poydevorlari hisoblanadi. Avval aytganimizdek oilada ona qanchalik zukko, aqilli, dono boʻlsa, bu oilada tarbiya topadigan farzandlar ham, yetuk inson boʻlib voyaga yetishadi. Bir insonning kamoli ana shunday bir sogʻlom oilada rivojlanadi. Bekorga “Vatan ostonadan boshlanadi” deyishmagan.

Hozirgi kungi yoshlarimiz juda shijoatli,aqilli va zukko. Menimcha, hozirgi kun muhiti, hukumatimizning xotin-qizlarga boʻlgan e`tibori,ularga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar. Ularning haq va huquqlarining ustuvorligini ta`minlanayotgani , xotin qizlarimizni yanada ruhlantirib ,g`ayratlariga g`ayrat qo`shmoqda. Hozirgi kunda ular nafaqat hududlarda yoki Respublikamizda, balki dunyo miqyosida o`zlarini har sohada sinab , o`lkan zafarlar quchmoqdalar. Bu erishilayotgan yutuqlarni xotin-qizlar miqyosida keng targ`ib etishilishi, motivatsiyar beradigan uchrashuvlar va seminarlar, konferensiyalarni ko`proq tashkillashtirilishi lozim bo`ladi. Hozirgi kunda esa bu mavzu juda dolzarb. Ijtimoiy tarmoqlarda ham, televideniya va radiolarda ham xotin-qizlarga bag`ishlangan ko`rsatuvlar juda ko`p. Ular orqali ham ularning bilim salohitani oshiris maqsadi olg`a surilgan.

Hozirgi kun ayoli boʻlish juda ma`suliyatli va mashaqqatli . Bugun xotin-qizlarimiz zamon bilan hamnafas boʻlishlari har kungi yangiliklar va o`zgarishlardan boxabar boʻlishlari kerak. Bugungi kun xotin-qizlarining kundalik hayotlari juda o`zgacha . Ularning kun tartibi juda tig`iz . Biz farzdlarimizga gudakliklaridan vaqtni to`g`ri taqsimlash, vaqtdan unumli foydalanishni o`rgatishimiz lozim. Bu sohada o`zimiz ham ularga namuna bo`lishimiz, atrofimidagilarga urnak bo`lishim kerak.

Ayollarning baxti-saodati muammolari, bu jamiyatning Muammosi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotda xotin-qizlarning roli muhim hisoblanadi. Qayerda ayolning huquqi va erkinligi toptalsa u yerda madaniy rivojlanish boʻlmaydi. Bizni yurtimizda mustaqillikning ilk kunidanoq ayollarga etibor kuchaytirilgan. Ayollar salomatligi ularning turmush tarziga etibor kuchaygan, bu borada yildan yilga tashabbuslar koʻpaymoqda. Nafaqat mahalliy organlar, balki har bir inson, har bir oila, har bir mahalla maʼsuliya boʻlishi kerak. Har birimiz uyimizdagi, oilamiz aʼzosi boʻlmush xotin-qizlarimiz taqdiri, ularning avvalo sogʻliqlari, diniy va dunyoviy toʻgʻri bilim olishlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga befarq boʻlmasligimiz kerak. Ularga oʻz bilimlari ustida ishlashlariga, bir kasbni egallashlariga koʻmak berishimiz lozim, chunki, jamiyat oiladan boshlanadi. Bu tashabbuslarning bari ayollar diskriminatsiya qilinishini bartaraf etadi. Chunki Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida, "Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga koʻra inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya, qonun bilan himoya qilinadi.", -deyilgan, bu uning jinsidan qatʼiy nazar barchaga birdey deganidir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ayollar, xotin-qizlarimizni faqat oila, uy-ruzgʻor ishlari uchun jalb etmasdan, ularga keng imkoniyatlar yaratib berishimiz kerak.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ayollar huquqlari diskriminatsiya qilinishining barcha shakllariga barham berishi toʻgʻrisidada konvensiya tuzgan. Demak ayolning jamiyatdagi oʻrni shunchalik muhimki, bu dunyo miqyosidagi muhokamalarga sabab bolib kelgan. Ayollar, xotin-qizlarning oilaviy sharoiti, turmush tarzi qanchalik yaxshi boʻlsa, ularning muvaffaqiyatga erishish yoʻllari shunchalik koʻp boʻladi. Chunki u sogʻlom muhitda shakllanadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda xotin-qizlarimizning huquqiy ongini oshirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda tibbiy madaniyatni shakllantirish, odob-axloq qoidalarini singdirish uchun qancha ishlar olib borilmoqda. Har bir tashkilotda xotin-qizlar masalalari boyicha xotin-qizlar boʻlimlari tashkil etilgan. Mahallalarda xotin-qizlar boʻlimlari ham faol ish olib borilmoqda. Qanchadan qancha zoʻravonlikka uchragan xotin-qizlarimiz himoyaga olinmoqda, ularning hayot tarzlarini tubdan oʻrganilib, muammolariga yechimlar topilmoqda. Uy-joylardan muammosi bor ayollarga davlatimiz tomondan uy-joy bilan taʼminlanmoqda. Xotin-

qizlarimiz uchun imkoniyatlar eshigini juda keng ochib berishmoqda. Ta'lim sohasi deymizmi, tadbirkorlik deymizmi, hunarmandchilik deymizmi barcasida xotin-qizlarimiz uchun qanchadan qancha imkoniyatlar yaratilib bermoqda.

Bizning xalqimiz juda bag'ri keng xalq bo'lib, bizda oila mustahkamligida, oiladagi xotin-qizlarga bo'lgan munosabatga kata etibor beriladi. Shuning uchun ham avlod-ajdodlarimiz orasida nomi doston bo'lgan ayollarimiz ko'p bo'lgan va bugungi kunda yanada ko'payib bormoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, yurtboshimiz boshchiligidagi bu tashabbuslar behuda emas va bu o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksi.
3. Lex.uz sayti.
4. Inson huquqlari va gumanitar huquqni o'rganish markazi "Mehri" ayollar jamiyati "Ayol huquqi va erkinliklari" kitobi.

* * *

Тошбоев Аъзамжон Юсубжонович

Ўзбекистон халқаро ислом академияси

"Ислом тарихи ва манбаашунослиги IRCICA "

кафедраси таянч докторанти,

Мир Араб олий мадрасаси уқитувчиси

БИБИ ҲОЖАР МОМО

Марказий Осиёда вужудга келган ва дунёнинг кўплаб мамлакатларига тарқалган тасаввуфий тарикатлардан бири – Нажмиддин Кубро асос солган кубровия тарикатидир. Қувонарли томони шуки, мустақиллик йилларида илгари кам эътибор берилган ислом уламоларининг ҳаёти ва ижоди ўрганила бошлади. Тасаввуф алломаларининг кадамжолари обод қилиниб, зиёратгоҳга айлантирилди. Илгари кам эътибор қаратилган тасаввуф алломалари меросини ўрганишга, баёзларни тадқиқ этишга кенг йўл очилди.

Ўрта асрларда ватанпарварликни юксак чўққига олиб чиққан жавонмардлик таълимоти ва унинг йирик вакилларидан бири Нажмиддин Кубро бўлган.



**“МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ
ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЮКСАЛИШИДА
АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ”**

мавзусида ёшларнинг фикр-мулоҳазалари



МУНДАРИЖА

З.М.Исломов. Ҳадисларда аёлларга ҳурматли муносабатнинг ифодаланиши.....	3
А.Абдуллаев. Аёл – саодат ва эзгулик тимсоли	5
Р.Б.Матибаева. «Манакиб аби Ҳанифа» асарларида аёлларга бўлган муносабат ҳақида	8
Г.С.Фузаилова. Соғлам турмуш тарзи – мустаҳкам оила пойдевори.....	11
М.Р.Атаев. Исломда болаларни она сути билан озиклантириш масаласи.....	15
Г.А.Sharipova. Sogʻlom avlod tarbiyasida ayollarning oʻrni.....	23
M.N.Raximjanov. Nodirabegim hayoti va ijodi	27
Д.К.Сағдуллаева. Аёл аталмиш илм.....	30
О.Мусаев. Маънавиятимизнинг юксалишида аёлларнинг ижтимоий фаоллиги	33
Ю.Садиков. Хотин-қизлар таълимини қўллаб-қувватлаш	36
Б.Махаммадходжаев. XX аср биринчи ярмида ўзбек адабиётларида аёллар образлари (А.Қодирий асарлари мисолида)	39
З.Н.Талипова. Хотин-қизларнинг жамиятдаги ўрни ва уларнинг ҳақ-ҳуқуқлари	43
Д.Қ.Оллаберганова. Холид Хусайний асарларида аёл характерининг шаклланиш мезонлари.....	47
M.F.Elmurotova. Jamiyat rivojida хотин-qizlarning roli	51
А.Ю.Тошбоев. Биби Ҳожар момо	55
М.Бегалиева. Миллий-маънавий мерос инсон камолотининг муҳим омили.....	58
N.Botirova, Y.Sadikov. Islom tarixida musulmon ayol tabibalar va ularning sogʻliqni saqlashdagi oʻrni.....	62
Н.Ботирова, Х.Турдиева. Аёлларда болани олдириб ташлаш (аборт қилиш)даги тиббий ва диний кўрсатмалар.....	66
О.Неъматова, М.Н.Рахимжанов. Исломда аёлларнинг илм олишидаги ҳақлари	70
М.Жоʻрақоʻzieva, M.N.Raximjanov. Jahon Otin Uvaysiy	72
А.У.Шамансурова, Х.Нуриддинов. Фарзанд тарбиясида оиланинг ўрни	75

С.Рашидова, Р.Матибаева. Роль женщин в современном обществе	82
С.Рашидова, Р.Матибаева. Исламские источники о женщинах	85
И.Тахирова, З.Арипова. Роль женщин в Южной Корее	89
I.Yo Idoshev, H.Turdiyeva. XIX-XX asrlarda yashab oʻtgan Qashqadaryo vohasining ziyoli ayollari.....	92
И.Йўлдошев, Х.Турдиева. Аёлга эътибор – миллатга эътибор	95

**Миллий ва маънавий кадриятларнинг
юксалишида аёлларнинг ўрни
Мавзусида ёшларнинг фикр-мулоҳазалари**

А.Исмагуллаев. Саййид Шариф Журжонийнинг “Сарфи Мир” асари ҳақида	100
А.Исмагуллаев. Саййид Шариф Журжоний ва унинг “Наҳви Мир” асари	102
Н.Х.Холлиева. Бошланғич синфда ўқитишнинг замонавий технологияларидан фойдаланиш усуллари	104
В.Мамаджанова. Применение коммуникативных и лексических игр на занятиях арабского языка	106
А.Охунов, М.Мадаева. Алишер Навоийнинг «Сабъаи сайёр» достонининг хусусиятлари.....	110
Т.Авлиёхонов, Д.Турдиева. Порядок празднования праздника песах	113
Т.Авлиёхонов, Д.Турдиева. Шаббат в иудаизме	117
О.А.Abduмуhtarova, A.Isamutdinov. Arab tilshunosligi tarixida Basra maktabining oʻrni.....	121
A.A.Mustafojev, D.U.Qalandarova. Coverage of hadiths on the interpretation of some surahs in the collection Al Jome ʻ as-sahih (On the example of some verses of the Surah ʻ Nisaʻ)	126
G.Roʻziboyeva, H.Nuriddinov. Arab tilida mafʻullar.....	129
Ф.Тоҳиров, Д.Турдиева. Монотеизм в иудаизме.....	133
D.Sharipova, H.Nuriddinov. Talabalar mustaqil tayyorgarlikdan keyingi leksiya metodi	136
S.Sirojiddinova, Ubayd Muhammad Abdulhalim. أهمية المعنى في توجيه الإعراب	141
S.Sirojiddinova, Ubayd Muhammad Abdulhalim. تعدد الأوجه الإعرابية.....	144
H.Dadaboyeva, B.Daminov. أساليب الإنقان في تعلم اللغات الأجنبية	148

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ

**МИЛЛИЙ ВА МАЪНАВИЙ
ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЮКСАЛИШИДА
АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ**

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
нашриёт-матбаа бирлашмаси
Тошкент – 2022

Нашр учун масъул: **И.Ашурматов**
Мухаррир: **Р.Матибаева**
Бадий мухаррир: **Ф.Собиров**
Дизайнер-саҳифаловчи: **Л.Абдуллаев**

Нашриётнинг лицензия рақами АА № 0011. 06.05.2019 йил.
Босмахонага 07.04.2021 йилда берилди.
Бичими 60×84 $\frac{1}{16}$ Шартли б.т. 23,2. Нашр т. 24,2
Адади 100 нусха. Буюртма № 00.
Баҳоси шартнома асосида.

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
100011. Тошкент ш. А.Қодирий, 11.